
Farg'ona markazida yangi Fergana City majmuasi qad rostlamoqda

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahrining Universitet ko'chasidagi sobiq Bolajon akvaparki o'rnida barpo etilayotgan Fergana City majmuasida qurilish ishlarining borishi bilan tanishdi.

Savdo markazi, ko'ngilochar maskanlar hamda turar-joylardan iborat ushbu majmua loyihasi ikki bosqichda amalga oshirilayotgan bo'lib, hozirda birinchi bosqichda loyiha qiymati 77 milliard so'm bo'lgan 6 qavatli savdo markazi hamda umumiy qiymati 120 milliard so'm bo'lgan 6 ta 9+1 etajli ko'p qavatli uylar qad rostlamoqda. Ikkinchi bosqichda 7 qavatli biznes markazi hamda 11 ta ko'p qavatlar uylar barpo etiladi.

Savdo markazining har bir qavati 3 ming m.kv. dan iborat bo'lib, supermarket, texnika va maishiy mollar do'konlari, franshiza asosida faoliyat ko'rsatuvchi brend butiklar, ovqatlanish shaxobchalarini o'z ichiga olgan food court, zamonaviy fitnes-klub, kinoteatr hamda yuqori qavatida ochiq osmon ostidagi restoran faoliyati yo'lga qo'yiladi.

2022-09-27 16:17:01